XORAZM O‘G‘UZ SHEVALARI PAREMIOLOGIYASIDA DINIY TUSHUNCHALARNING QO‘LLANISHI

Matnazarov Shaxzodbek Baxtiyarovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi;
Ismailova Anaxon Kamoladdin qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Xorazm o‘g‘uz shevalaridagi paremiologik birliklarning diniy-e’tiqodiy qatlami tahlil qilinadi. Muallif paremiyani diniy diskursning sekulyarlashgan shakli sifatida ta’riflab, diniy tushunchaning maishiy vaziyatni baholash quroliga aylanish jarayonini ko‘rsatadi. 996 birlikdan iborat korpusda diniy leksema yoki motivga ega 100 birlik ajratilib, ular yettita tematik guruhga taqsimlanadi. Markaziy xulosa quyidagicha: diniy konseptosfera bir jinsli emas, u kamida uch qatlamdan — islomiy, doislomiy turkiy-eroniy va maishiy-ratsional qatlamdan — iborat bo‘lib, ular funksional taqsimotda yashaydi.

Аннотация. В статье анализируется религиозно-верованческий пласт паремиологических единиц огузских говоров Хорезма. Определяя паремию как секуляризованную форму религиозного дискурса, автор показывает процесс превращения религиозного понятия в инструмент оценки бытовой ситуации. В корпусе из 996 единиц выделены 100 единиц с религиозной лексемой или мотивом, распределённые по семи тематическим группам. Центральный вывод: религиозная концептосфера неоднородна и включает не менее трёх пластов — исламский, доисламский тюрко-иранский и бытовой-рациональный, — сосуществующих в функциональном распределении.

Abstract. The article analyses the religious and belief-related stratum of paremiological units in the Oghuz dialects of Khorezm. Defining the proverb as a secularised form of religious

discourse, the author traces the transformation of religious concepts into instruments for evaluating everyday situations. Within a corpus of 996 units, 100 units containing a religious lexeme or motif are identified and distributed across seven thematic groups. The central conclusion is that the religious conceptosphere is not homogeneous: it comprises at least three strata — Islamic, pre-Islamic Turkic-Iranian and everyday-rational — coexisting in functional distribution.

Kalit so‘zlar: diniy diskurs, diniy konseptosfera, sinkretizm, teonim, qazo-qadar, xalq dindorligi, doislomiy e’tiqod, Xorazm o‘g‘uz shevalari.

Ключевые слова: религиозный дискурс, религиозная концептосфера, синкретизм, теоним, предопределение, народная религиозность, доисламские верования, огузские говоры Хорезма

Key words: religious discourse, religious conceptosphere, syncretism, theonym, predestination, folk religiosity, pre-Islamic beliefs, Oghuz dialects of Khorezm.

Kirish. Til va din munosabati tilshunoslikning eng qadimiy muammolaridan biridir. N.B. Mechkovskaya ta’kidlaganidek, din nafaqat alohida leksik qatlamni shakllantiradi, balki tilning butun semantik tizimiga ta’sir ko‘rsatadi[1]. Shu sababli diniy tushunchalar asosida shakllangan til birliklarini o‘rganish teologik emas, sof lingvomadaniy vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda diniy diskurs institutsional diskurs turlaridan biri sifatida ajratiladi: uning maqsadi — e’tiqodni mustahkamlash, ishtirokchilari — ruhoniy va e’tiqod qiluvchi[2]. Diniy diskursning qadriyatga oid tomoni va janrlari maxsus tadqiqotlarda batafsil yoritilgan[3]. Paremiologik birlik esa institutsional diniy diskursga bevosita mansub emas: u ibodatxonada emas, kundalik nutqda qo‘llanadi,

[1]Мечковская Н.Б. Язык и религия: Лекции по филологии и истории религий. – М.: ФАИР, 1998.
[2]Карасик В.И. Религиозный дискурс // Языковая личность: проблемы лингвокультурологии и функциональной семантики: Сб. науч. тр. – Волгоград: Перемена, 1999.
[3]Бобырева Е.В. Религиозный дискурс: ценности, жанры, стратегии (на материале православного вероучения): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Волгоград, 2007. – 38 с.

muallifi ruhoniy emas, jamoa hisoblanadi. Shu ma’noda maqolni diniy diskursning sekulyarlashgan shakli deb ta’riflash mumkin.

Turkiy tillar materialida diniy leksika, frazeologiya va paremiyalarning kompleks tadqiq etilishi qo‘miq tili misolida amalga oshirilgan[4]; o‘zbek tilshunosligida esa dialektal paremiologik fondning diniy konseptosferasi maxsus o‘rganilmagan.

Teonimlar va ilohiy hokimiyat konsepti. Diniy konseptosferaning markazida ilohiy hokimiyat konsepti turadi va u korpusda 14 birlik orqali voqelanadi. Teonimlar tizimi bir jinsli emas: *xudo* maishiy varianti 10 birlikda, *Alloh* shakli ikki birlikda, *Xoliq* va *Haq* bittadan birlikda uchraydi. Bu taqsimot uslubiy jihatdan izchil — kitobiy nominatsiyalar yuqori uslubdagi birliklarda, maishiy variant esa kundalik vaziyatlarga oid birliklarda faol.

Ilohiy hokimiyat to‘rt model orqali ifodalanadi. **Ilohiy adolat** modelida dunyoviy hokimiyat adolat bera olmagan holatda oliy instansiya ko‘rsatiladi: *Daváyarìŋ pášá bolsa, arzìŋnì Allá äšitsin*[5], bunda *davogar* — sudlashuvchi tomon. **Ilohiy jazoning muqarrarligi** *Här kimni Allá ursa, pajγambar xasásì ilä turtar*[6] birligida beriladi; *xasosa* — hassa, tayoq. **Ilohiy guvohlik** modeli *Jaxšìlìq et darjágä tašla, balìq bilür, balìq bilmäsä, Xálìq bilür*[7] birligida amalga oshadi: bosqichma-bosqich torayuvchi guvohlar zanjiri quriladi va *balìq — Xálìq* qofiyasi bu bog‘lanishni tovush darajasida mustahkamlaydi.

Korpus materiali umumiy qonuniyatni ochib beradi: teonim ishtirok etgan birliklarning aksariyatida Alloh nomi teologik bahs predmeti emas, maishiy hukmning

[4]Гасанова У.У. Религиозная лексика и фразеология кумыкского языка: Дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.02. – Махачкала, 2010. – 155 с.
[555]Xorazm folklori. XI tom. – B. 35.
[66]Xorazm folklori. XI tom. – B. 36.
[77]Xorazm folklori. XI tom. – B. 37.

yakuniy asosi sifatida qo‘llanadi. *Bärgän xudágä jaqìbdì*[8] birligida saxiylik ilohiy sanksiya bilan mustahkamlanadi. Bu — regulyativ qo‘llanish: diniy nominatsiya axloqiy me’yorning obro‘sini oshirish vositasi vazifasini bajaradi.

Qazo-qadar konseptosferasi va uning ichki ziddiyati. Taqdir va rizq konseptlari korpusdagi eng katta tematik guruhni tashkil etadi — 19 birlik. Guruhning eng muhim tahliliy natijasi ikki qarama-qarshi dunyoqarash modelining yonma-yon mavjudligidir.

Fatalistik model taqdirni oldindan belgilangan miqdor sifatida taqdim etadi; unga 12 birlik (guruhning 63,2 foizi) mansub: *Nasìbaŋ bolmasa, jűgűrgäniŋ qáladì*[9], *Qìrq jìl qìrán bolsa, qazásì jetgän öladi*[10]. Oxirgi birlikda ommaviy falokat ham individual taqdirni o‘zgartira olmasligi ta’kidlanib, jamoaviy va shaxsiy qazo qarshilantiriladi.

Aktivistik model rizqni inson mehnatiga bog‘laydi; unga 5 birlik (26,3 foiz) mansub: *Här kimniŋ rìzqì qolìda boladì*[11], *Játgan höčizgä jem joq*[12]. Diqqatga sazovor jihat shundaki, aktivistik modelga mansub birliklarning barchasi zamonaviy manbalarda qayd etilgan, fatalistik model esa har uch davr materialida bir tekis taqsimlangan. Bu — fondning tarixiy dinamikasini ko‘rsatuvchi dalil.

Ziddiyatni mantiqiy nomuvofiqlik emas, funksional taqsimot sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Fatalistik birliklar muvaffaqiyatsizlikni izohlash va tasalli berish vaziyatida, aktivistik birliklar esa harakatga undash vaziyatida faollashadi; ikki model birgalikda yaxlit pragmatik tizim hosil qiladi.

[888]Xorazm folklori. XI tom. – B. 30.
[999]Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Кўрсатилган асар. – Б. 95.
[1010]Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 45.
[111111]Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Кўрсатилган асар. – Б. 79.
[12]Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Кўрсатилган асар. – Б. 99.

Oxirat konsepti va ruhoniy tabaqa obrazi. Ajal va oxirat guruhiga 17 birlik kiradi. Materialning eng muhim xususiyati shundaki, o‘lim konsepti paremiyalarda deyarli hech qachon teologik talqinda berilmaydi: korpusda jannat va do‘zax nominatsiyalari umuman qayd etilmadi. O‘lim, asosan, sotsial-maishiy rakursda ko‘riladi — uning oqibatlari tiriklar hayoti nuqtayi nazaridan baholanadi. *Käfänniŋ čöntägi bolmas*[13] birligida kafan obrazi predmet-maishiy kod doirasida ishlab, mol-mulkni u dunyoga olib ketib bo‘lmasligini ifodalaydi.

Marosim iqtisodiyotining tanqidi alohida kichik guruhni tashkil etadi: *Ölik tojmagunča, tirik tojmas*[14]. Bunday birliklarni diniy amaliyotga qarshi qaratilgan deb baholash noto‘g‘ri bo‘lardi — ular e’tiqodni emas, uning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyotini muhokama qiladi va jamoaviy refleksiyaning lisoniy shakli hisoblanadi.

Ruhoniy tabaqa obraziga 17 birlik mansub va tahlilning eng muhim natijasi quyidagi: korpusda dinning o‘zi, ilohiy hokimiyat yoki muqaddas matn hech qayerda salbiy baholanmaydi, ammo diniy institutning vakillari muntazam kinoyaga uchraydi — 17 birlikning 12 tasi (70,6 foizi) salbiy yoki kinoyaviy bahoga ega. Bu farq xalq dindorligining o‘ziga xos belgisi hisoblanadi. Kinoyaning eng ta’sirchan vositasi gradatsiya asosidagi parallelizm: *Äšánìm däb äšägimdän ajrìldìm, xážam däb xuržunìmdan ajrìldìm, töräm däb törvamdan ajrìldìm*[15]. Uch bo‘g‘inli tuzilmada unvon nomi va yo‘qotilgan mulk nomi tovush jihatdan yaqinlashtirilgan; bu paronomaziya yo‘qotishning izchil, qonuniy xarakterini ta’kidlaydi.

Doislomiy qatlam va sinkretizm. Korpusning 15 birligi islomiy an’anaga to‘liq mansub bo‘lmagan e’tiqod obrazlarini o‘z ichiga oladi. Bu qatlamning mavjudligi

[13]Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 33.
[1414]Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 40.
[1515]Xorazm folklori. XI tom. – B. 33.

Xorazm maishiy madaniyatida islomgacha bo‘lgan turkiy va eroniy unsurlarning uzoq saqlanib qolgani bilan izohlanadi[16].

Xizr obrazi *Qïzïl Xïzïrni ajnatur*[17] birligida oltin-pulning hatto Xizrni ham yo‘ldan urishini ta’kidlaydi. Xizr Markaziy Osiyo folklorida baraka keltiruvchi mifologik homiy sifatida namoyon bo‘ladi; paremiyada uning buzilmas obro‘si eng oliy o‘lchov sifatida keltiriladi. **Shayton, dev va jin** nominatsiyalari genetik jihatdan turli manbalarga borib taqaladi va korpusda ularning vazifalari ham farqlanadi. Jin nominatsiyasi mifologik mazmunini deyarli yo‘qotgan va aql-idrok me’yoridan chetlashishni bildiruvchi maishiy leksemaga aylangan: *Ǯinniniŋ kätdä-kičigi bolmajdï*[18].

Irim va agrar-magik e’tiqod izlari eng ochiq shaklda saqlangan. *Jaxšï irim — jári davlat*[19] birligida alomatga ishonish bevosita ijobiy baholanadi. Yanada arxaik qatlam *Kösä bársa, köl qurïjdï*[20] birligida ko‘rinadi: ko‘sa Markaziy Osiyo xalq madaniyatida bahorni kutib olish marosimlari bilan bog‘langan personaj bo‘lib[21], paremiyada u salbiy magik ta’sir tashuvchisi sifatida qayd etilgan. Suv obrazining ishtiroki birlikni Xorazmning sug‘orma dehqonchilik konteksti bilan bog‘laydi: agrar-magik e’tiqodda eng katta xavf suv manbaining yo‘qolishi bilan o‘lchanadi.

Chegara magiyasining izlari *Bäkli äšik balá qajtarar*[22] birligida saqlangan; *bakli* — berk, qulflangan ma’nosidagi sheva so‘zi. Unga mazmunan zid *Dávul áčïq äšikdän*

[16]Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969.
[1717]Xorazm folklori. XI tom. – B. 36.
[181818]Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Кўрсатилган асар. – Б. 91.
[1919]Xorazm folklori. XI tom. – B. 37.
[202020]Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Кўрсатилган асар. – Б. 91.
[21]Басилов В.Н. Шаманство у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1992.
[22]Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 26.

kirädi[23] birligi to‘ldiruvchi juftlik hosil qiladi. Ikkala birlikda ham chegara tushunchasi zararli kuchning kirish nuqtasi sifatida talqin qilinadi[24].

Xulosa. 996 birlikdan iborat korpusning 100 tasi (10,0 foizi) diniy leksema yoki motivga ega. Bu ko‘rsatkich diniy konseptosferaning paremiologik fondda markaziy emas, ammo barqaror o‘rin tutishini bildiradi: u alohida qadriyat maydoni sifatida emas, boshqa maydonlarni asoslash vositasi sifatida ishlaydi.

Teonimlar tizimida uslubiy tabaqalanish aniqlandi va XIX asr materialidan zamonaviy to‘plamlarga o‘tishda maishiy variantning ulushi oshgani qayd etildi — bu diniy leksikaning uslubiy neytrallashuv jarayonini ko‘rsatadi.

Qazo-qadar konseptosferasida ikki qarama-qarshi model funksional taqsimotda yashashi asoslandi. O‘lim konsepti esa teologik emas, sotsial-maishiy talqinda beriladi: korpusda jannat va do‘zax nominatsiyalari umuman uchramaydi.

Eng muhim xulosa diniy konseptosferaning bir jinsli emasligidir. Unda kamida uch qatlam ajratiladi: islomiy qatlam, doislomiy turkiy va eroniy qatlam hamda maishiy-ratsional qatlam. Bu qatlamlar bir-birini inkor etmaydi va raqobatlashmaydi — ular funksional taqsimotda yashaydi, har biri o‘ziga xos vaziyat turini xizmatga oladi. Aynan shu funksional taqsimot diniy sinkretizmning lisoniy mexanizmini tashkil etadi.

[23]Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 31.
[24]Толстой Н.И. Язык и народная культура: Очерки по славянской мифологии и этнолингвистике. – М.: Индрик, 1995.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобырева Е.В. Религиозный дискурс: ценности, жанры, стратегии (на материале православного вероучения): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Волгоград, 2007. – 38 с.

2. Басилов В.Н. Шаманство у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1992.

3. Гасанова У.У. Религиозная лексика и фразеология кумыкского языка: Дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.02. – Махачкала, 2010. – 155 с.

4. Карасик В.И. Религиозный дискурс // Языковая личность: проблемы лингвокультурологии и функциональной семантики: Сб. науч. тр. – Волгоград: Перемена, 1999.

5. Ковшова М.Л. Лингвокультурологический анализ идиом, загадок, пословиц и поговорок. Антропонимический код культуры: Монография. – М.: Ленанд, 2019. – 400 с.

6. Мечковская Н.Б. Язык и религия: Лекции по филологии и истории религий. – М.: ФАИР, 1998.

7. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969.

8. Толстой Н.И. Язык и народная культура: Очерки по славянской мифологии и этнолингвистике. – М.: Индрик, 1995.

9. Норбоева Ш., Саъдуллаева Н., Атабоева М. Хоразм шеваларидаги мақол ва ибораларнинг қисқача изоҳли луғати. – Урганч, 2022. – Б. 91, 95, 99.

10. Komil Avaz. Mo‘jaz maqollar va naqllar. – Urganch, 2005. – B. 26–45.

11. Xorazm folklori. XI tom / To‘plovchi S. Ro‘zimboyev. – Urganch, 2021. – B. 30–37.